Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли	
O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari	848
Shaislamova Nargiza Qabilovna	
Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakllantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar"dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikani integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	1081
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	



Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	



ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI



I.G'.Isroilov

Namangan davlat texnika universiteti,
tayanch doktorant
Islomjon19871988@gmail.com
orcid:0009-0004-2738-0741

Annotatsiya: Mazkur maqolada ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi ichki auditning rivojlanish darajasi va tashkilot faoliyatida ichki auditning ishtiroki ulushini baholash, ko'rsatkichlarni tahlili va uni baxolashni amalga oshirishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi o'rni, shuningdek ichki audit xizmati va keyingi nazorat sub'ektlari faoliyatining asosiy baholash ko'rsatkichlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: ichki audit samaradorligi tahlili, ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi, ko'rsatkichlarning maqsadli qiymati, solishtirma og'irligi, ichki va tashqi baholash, konsalting loyihalari.

Abstract: In this article, the methodology of internal audit efficiency analysis, the level of development of internal audit and the evaluation of the share of internal audit participation in the organization's activities, the role of economic entities in the implementation of the analysis of indicators and its evaluation, as well as the main evaluation indicators of the activities of the internal audit service and subsequent control entities are studied.

Key words: internal audit efficiency analysis, internal audit efficiency analysis methodology, target value of indicators, comparative weight, internal and external evaluation, consulting projects.

Аннотация: В данной статье исследуются методология анализа эффективности внутреннего аудита, уровень развития внутреннего аудита и оценка доли участия внутреннего аудита в деятельности организации, роль хозяйствующих субъектов в осуществлении анализа показателей и его оценке, а также основные показатели оценки деятельности службы внутреннего аудита и субъектов последующего контроля.

Ключевые слова: анализ эффективности внутреннего аудита, методология анализа эффективности внутреннего аудита, целевые значения показателей, сравнительный вес, внутренняя и внешняя оценка, консалтинговые проекты.

KIRISH

Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi (uslubiy asos) ichki auditning rivojlanish darajasi va tashkilot faoliyatida ichki auditning ishtiroki ulushini baholash uchun vositalar va usullar majmui bo'lib, ichki auditning muayyan muammolarini hal qilishga imkon beradi. Ichki audit samaradorligini tahlil qilishning uslubiy vositalari tahlilning sifat va miqdoriy turlarini asosiy yo'nalishlari kesimida farqlanadi. Shuningdek ichki auditning auditorlikni rejalashtirish, o'tkazish va tashkil etish usullari, o'tkazilgan audit natijalari va samaradorligini baholash kabi turli sohalarini o'z ichiga oladi.

Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi tashkilotdagi jarayonlarning rejalashtirish va prognozlashtirishdan tortib, natijalarni monitoring qilish va tahlil qilishgacha bo'lgan butun siklini qamrab oladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasining tarkibiy elementlari yoki ko'rsatkichlari I.G. Sergeeva, G.A. Umarova, I.B. Kenjebaeva, E.V. Ostanin va boshqalarning fikrlari, ichki auditorlar instituti a'zolarining yig'ilishlari materiallari, xorijiy olimlarning maqolalari, shu jumladan xorijiy nashrlarning professional tarjimalarini inobatga olgan holda tanlangan. Shunday qilib, samaradorlikning quyidagi komponentlari tanlandi:

- rejaning bajarilishi - baholash davrida Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan ichki audit ish rejasining barcha tekshiruvlari to'liq hajmda yakunlandi, audit natijalari bo'yicha xulosa baholash davrida Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi tomonidan ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz ichki auditni takomillashtirish maqsadida olib borilgan bo'lib, ichki auditni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jara'ida amaliy materiallarni taqqoslash va statistika kabi usullardan foydalanilib xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kuzatuv kengashi, rahbariyat yoki boshqa ichki audit mijozlari tomonidan baholash - tanlangan tizim bo'yicha barcha respondentlardan so'rovnoma o'tkazildi, ichki audit bo'limi faoliyatini tashkil etish sifatini, shu jumladan auditorlarning kommunikativ ko'nikmalarini aks ettiruvchi baholash qayd etilgan qayta aloqa so'rovnomalari o'tkazildi (1-jadval);

1- jadval. 2024 yildagi ichki audit faoliyatini natijalari bo'yicha teskari aloqa so'rovnoma shakli.

So'rovchi:

Lavozim _____

FISH _____

No	Savol	Baho (maksimal 5 ball)	Izoh
1	2	3	4
1.	Sizningcha, audit natijalari va xulosalari tashkilot uchun foydalimi? Imkoniyat qadar, nima uchun foydali emasligini izohlang / ijobiy tomonlarini ayting.		
2.	Sizningcha, o'rnatilgan sabab-natija aloqalari va kuzatishlar to'g'rimi, xulosalar asoslimi? Agar yo'q bo'lsa, iltimos, sababini tushuntiring.		
3.	Sizningcha, audit tavsiyalari biznes jarayonlarining samaradorligi, xarajatlarni optimallashtirish, yo'qotishlarning oldini olish va aktivlar butligiga qanday ta'sir ko'rsatdi?		
4.	Sizningcha, audit jarayonida rahbariyat bilan o'zaro hamkorlik va aloqa sifati samarali yo'lga qo'yilganmi? Agar yo'q bo'lsa, iltimos, sababini tushuntiring.		
5.	Audit hisobotlarining sifati bo'yicha fikringizni bildiring: - Hujjat tushunarli tuzilganmi? - unda kerakli miqdordagi ma'lumotlar mavjudmi?		
6.	Sizningcha, audit sifatini yaxshilash uchun qanday imkoniyatlar mavjud?		

To'ldirish sanasi: _____ 202__

- ichki audit bo'limi faoliyatidan ko'zlangan iqtisodiy samara - audit tugaganidan keyin ikki yil (yoki boshqa davr) ichida ichki audit bo'limining tavsiyalarini bajarish natijasida xarajatlarni tejash yoki qo'shimcha daromad olish, ichki audit bo'limi tomonidan o'tkazilgan kamchiliklarni bartaraf etish monitoringi natijalari bilan tasdiqlanadi. Aktivlarning butililgini ta'minlashga qaratilgan tekshiruvlar uchun baholash davrida tashkilot aktivlarining haqiqiy miqdorida aniqlangan xatoliklar hisobga olinadi. Ko'rsatkichlarning maqsadli qiymati ichki auditning mustaqilligini ta'minlash uchun belgilanmagan;



- ichki audit bo'limi faoliyatini ichki va tashqi baholash natijalari - baholangan davrda tegishli baholash shkalasiga ko'ra va ichki auditorlar tomonidan o'z-o'zini baholashga maksimal ball olingan;

- rahbariyat tomonidan qabul qilingan tavsiyalar miqdori - ichki audit bo'limi tomonidan audit natijalari bo'yicha shakllantirilgan kuzatuvlar va tavsiyalarning rahbariyat tomonidan bajarish uchun qabul qilinganini soni;

- rahbariyat tomonidan audit o'tkazish uchun berilgan buyurtmalar miqdori – rahbariyat tomonidan audit o'tkazish uchun, konsalting loyihalarini amalga oshirish uchun berilgan buyurtmalarning mavjudligi ichki auditga bo'lgan talabning yuqoriligini tasdiqlaydi, uni hisob-kitob davri uchun rejalashtirilgan auditlar soni bilan solishtirish tavsiya etiladi;

- ichki audit tomonidan jarayonlarni qamrab olinishi - ichki audit tekshiruviga kiritilgan barcha jarayonlar riskga asoslangan uch yillik rejalashtirish asosidagi audit tekshiruvi bilan qamrab olinadi. Misol uchun, tashkilotda barcha yo'nalishlar bo'yicha jarayonlari aniqlangan, ya'ni aniqlangan jarayonlarning 100%i uch yil ichida qamrab olinishi kerak. «Jarayonlarni qamrab olish» deb nomlanuvchi J ilovada har qanday tijorat tashkiloti tomonidan ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichni hisoblashni avtomatlashtirish uchun tegishli shakl namunasi taklif qilingan. Byudjet muassasalari uchun operatsiyani yoki asosiy hujjatni batafsil ko'rsatmasdan, muayyan byudjet tartib-qoidalariga muvofiq hisoblash tavsiya etiladi;

- tashkilot miqyosida jarayonlarda aniqlangan jiddiy xatoliklar soni (shu jumladan firibgarlik tufayli) - o'tkazilgan auditlar natijasida aniqlangan jiddiy xatoliklar soni. Muhimlik tashkilotda belgilangan metodika asosida auditning har bir sohasi uchun alohida belgilanadi;

- tartibga soluvchi organlar tomonidan bildirilgan e'tirozlar soni.

Samaradorlikning tarkibiy elementlari aniqlangandan so'ng samaradorlikning tegishli elementining ulushi aniqlandi. Samaradorlikning tarkibiy elementlarining ulushlari yig'indisi 100% ni tashkil qiladi. Taklif etilayotgan hisob-kitobda, agar ichki audit mijozi manfaatdor bo'lsa, har bir samaradorlik elementining ulushi qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Hisob-kitob Rossiyaning ichki auditorlar instituti tomonidan 2022 yilning kuzida o'tkazilgan tadqiqotga asoslangan.

Taklif etilayotgan ko'rsatkichlar ulushi ovoz beruvchilar sonidan kelib chiqib hisoblab chiqilgan. Ovoz berishda bir nechta samaradorlik ko'rsatkichlarini tanlash mumkin edi. Taklif etilayotgan yondashuvda ko'rsatkichning ulushini aniqlash ovoz beruvchilar ulushiga bog'liq bo'lib, alohida olingan har bir tashkilot uchun o'zgartirilishi yoki kelajakda ichki moliyaviy auditga oid qonunchilik darajasida belgilanishi mumkin.

Taklif etilayotgan modelda D1 ko'rsatkichi qiymatining solishtirma og'irligi, % quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$D_1 = \frac{\text{Ko'rsatkich uchun ovoz berganlar soni}}{\text{Barcha saylovchilar soni}}$	(1)
--	-----

2- jadval. Ichki audit samaradorligi ko'rsatkichining tarkibiy elementlari.

Ko'rsatkich	Ovoz beruvchilar soni, kishi.	Ko'rsatkichning ulushi, %
Rejaning bajarilishi	56	21,0
Kuzatuv kengashi, rahbariyat yoki boshqa ichki audit mijozi tomonidan berilgan baxo	51	19,1
Ichki audit faoliyatidan olingan iqtisodiy samara (shu jumladan xarajatlarni tejash va qo'shimcha daromadlar)	48	18,0
Ichki auditni ichki va tashqi baholash natijalari	30	11,2
Rahbariyat tomonidan qabul qilingan kuzatuvlar, tavsiyalar soni, aniqlangan xavflar miqdori	25	9,4
Rahbariyat tomonidan audit o'tkazish va konsalting loyihalarini amalga oshirish uchun berilgan buyurtmalar soni;	19	7,1
Ichki audit jarayonlarni qamrab olinishi	14	5,2
Tashkilot faoliyatidagi jiddiy xatoliklar soni (shu jumladan firibgarlik tufayli)	14	5,2
Regulyatorlar e'tirozi soni	10	3,8
Jami miqdorda	267	100



Agar ko'rsatkich 202n kalendar yili uchun hisoblangan bo'lsa, unda 202n yil 31 dekabrgacha Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqish uchun yuborilgan tekshirishlar bo'yicha barcha xulosalar 202(n + 1) yil 1 yanvardan keyin berilgan barcha hisobotlar qabul qilingan. Ushbu yondashuv ichki audit bo'limining ish hajmini rejalashtirishning to'g'riligi va to'liqligini hamda rejali auditlarni o'z vaqtida o'tkazishni baholash imkonini beradi.

Endilikda samaradorlikning tarkibiy elementlari bo'lgan yuqoridagi barcha En ko'rsatkichlarini alohida ko'rib chiqamiz (3-jadval).

3- jadval – 2013–2024 yillar davomida ichki audit faoliyati sifatini tashqi mustaqil baholash maqsadida tijorat tashkilotlarining ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich	Ko'rsatkichning tavsifi	Samaradorlikning tarkibiy qismini maqsadli darajasi, %	Ko'rsatkichning maksimal qiymati, %	Ko'rsatkichning minimal qiymati, %
Rejaning bajarilishi	Baholash davridagi ish rejasi bo'yicha barcha auditorlik tekshiruvlari to'liq hajmda yakunlandi, audit natijalari bo'yicha xulosa direktorlar kengashi va taftish komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etildi.	100	> 100	0
Taftish komissiyasi, direktorlar kengashi, rahbariyat yoki boshqa ichki audit mijozi tomonidan berilgan baho	Tanlangan tizimga ko'ra barcha respondentlar maksimal reyting baholarini oldilar (masalan, 5 nafar respondent 10 ball dan 10 ball olgan).	100	> 100%, bir yoki bir nechta respondent ichki audit faoliyatini kutilgan ta'sirdan yuqori deb baholadi	0%, barcha respondentlar ichki audit faoliyatini salbiy baholadilar
Ichki audit faoliyatining iqtisodiy samarasi (shu jumladan har qanday turdagi tejalgan xarajatlari va qo'shimcha daromadlar)	Audit tugaganidan keyin ikki yil ichida ichki audit bo'yicha tavsiyalarni amalga oshirishdan xarajatlarni tejash (qo'shimcha daromad olish), ichki audit tomonidan o'tkazilgan kamchiliklarni bartaraf etish monitoringi natijalari bilan tasdiqlangan, ichki auditor tomonidan tegishli hisobotda aks ettirilgan ko'rsatkichning hisoblangan kutilayotgan qiymatiga mos keladi. Aktivlarni saqlashga qaratilgan auditlar asosida baholash davrida tashkilot aktivlarining haqiqiy mavjudligida aniqlangan og'ishlar xarajatlarni tejash natijasi bilan qo'shimcha ravishda umumlashtiriladi. Natural ko'rsatkichdagi maqsadli qiymat ichki auditorning mustaqilligini saqlab qolish uchun belgilanmagan	100	> 100%, agar auditorning tekshirishda ko'zlangan natijasini amalga oshirish natijasida olingan haqiqiy samaradan past bo'lsa yoki qo'shimcha kamchiliklar aniqlangan bo'lsa	0
Ichki auditni ichki, tashqi baholash natijalari	Баҳолаш асосида ички аудитга максимал балл миқдорда берилди (масалан, ташқи баҳолаш асосида 100 баллдан 100 балл олинган)	100	100	0%, agar samaradorlik ko'rsatkichini hisoblash davrida ichki auditni baholash o'tkazilmagan bo'lsa
Rahbariyat tomonidan qabul qilingan kuzatuvlar, tavsiyalar soni, aniqlangan xavflar soni	Barcha kuzatuvlar va tavsiyalar rahbariyat tomonidan amalga oshirish uchun qabul qilindi.	100	100	Hisoblash davrida rahbariyat tomonidan tavsiyalar qabul qilinmagan bo'lsa, 0%
Boshqaruv tomonidan audit o'tkazish, konsalting loyihalarini amalga oshirish bo'yicha so'rovlar soni	Rahbariyat tomonidan audit o'tkazish, konsalting loyihalarini amalga oshirish bo'yicha buyurtmalarning mavjudligi ichki auditga bo'lgan talabni tasdiqlaydi, hisob-kitob davri uchun rejalashtirilgan auditlar soni bilan taqqoslash amalga oshiriladi.	100	> 100%, buyurtmalar miqdori hisob-kitob davri uchun rejalashtirilgan auditlar sonidan oshib ketadi	0%, rahbariyatdan so'rovlar yo'q



Ichki audit olamidagi jarayonlarni yoritish	Ichki audit olamiga kiritilgan barcha jarayonlar uchun yillik riskga yo'naltirilgan rejalashtirishda to'la qamrab olingan. Misol uchun, agar tashkilotda barcha sohalarda biznes jarayonlari aniqlangan bo'lsa, u holda aniqlangan biznes jarayonlarning 100% uchun yil ichida qamrab olinishi kerak. Byudjet muassasalari uchun qamrab olish jarayongacha yoki boshlang'ich hujjatgacha batafsil ko'rsatmasdan, muayyan byudjet vakolatlari yoki tartib-qoidalariga muvofiq hisoblash tavsiya etiladi.	100	100	0
Kompaniyadagi jarayonlardagi sezilarli xatoliklar soni (shu jumladan firibgarlik natijasida)	Ko'rsatkich ichki audit samaradorligini baholash uchun qo'llanilganligi sababli, ko'rsatkich avvalgi shunga o'xshash davr bilan taqqoslanadi. Maqsadli qiymat: aniqlangan jiddiy qoidabuzarliklar sonining ko'payishi. Koeffitsientning maksimal chegarasi 200% ni tashkil qiladi, ya'ni har yili hisobga olinadigan jiddiy qoidabuzarliklar sonining ko'payishi 2 baravardan oshmaydi. Aniqlangan jiddiy qoidabuzarliklar soni bir xilda bo'lganda, maqsadli darajaga erishildi va 100% ga teng bo'ladi. Hisob-kitoblar quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi: joriy davrdagi izohlar soni oldingi davrdagi izohlar soniga bo'linadi, %	100	200	0
Regulyatorlarning e'tirozlari soni	Agar e'tirozlar bo'lmasa, audit 100%ga samarali faoliyat ko'rsatadi deb hisoblanadi. Agar e'tirozlar mavjud bo'lsa, baholash davri bilan bir xil davr uchun e'tirozlar soni bilan taqqoslash amalga oshiriladi, xususan: - e'tirozlar soni oldingi davr darajasida, 50% qoldi; - oldingi davrga nisbatan e'tirozlar soni kamaydi, keyin formula bo'yicha: $50 + 50 / \text{oldingi davr e'tirozlari soni} \times \text{joriy davr e'tirozlari soni, \%}$; - e'tirozlar soni oldingi davrga nisbatan ortadi, keyin formula bo'yicha: $\text{oldingi davr e'tirozlari soni} / \text{joriy davr e'tirozlari soni} / 2, \%$	100	100	0

Manba: muallif tomonidan tuzilgan

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda faqat miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanish (bitta auditorlik tekshiruvining o'rtacha davomiyligi, auditorlik e'tirozlari soni, aniqlangan kamchiliklar miqdori va boshqalar) etarli bo'lmaydi. Shu munosabat bilan, ichki audit bo'limi faoliyati samaradorligini xolis baholash uchun ham miqdoriy, ham sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Baholash ob'ekti va predmetiga qarab uslubiy yondashuvlar hamda samaradorlik ko'rsatkichlarini tizimlashtirish, baholash boshlanishidan oldin belgilangan maqsadlarga qarab, samaradorlikni tahlil qilish uchun hisob-kitobga kiritilgan elementlar qanchalik farq qilishi mumkinligini yaqqol ko'rsatadi. Ilgari olimlar tomonidan taklif qilingan samaradorlikni baholash usullari ichki auditning barcha xususiyatlarini hisobga olmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Фан, Т. Т. К. Факторы, И.Г. Сергеева, Г.А. Умарова, И.Б. Кенжебаева, Е.В. Останин влияющие на эффективность внутреннего аудита: Обзор российских исследований / Т. Т. К. Фан // Актуальные вопросы современной экономики. – 2020. – № 1. – С. 586–595.
2. Пакшина, Т. П. Подходы к методике оценки эффективности внутреннего аудита / Т. П. Пакшина, к.э.н., доц. Витебский государственный технологический университет, г. Витебск, Республика Беларусь. Социально-экономическое развитие организаций и регионов Беларуси: эффективность и инновации, 2017. – С. 254–257.
3. Каламанова, Е. Н. Концептуальные основы риск-ориентированного внутреннего аудита. Терминологический и видовой аппарат, ориентирован ный на риск / Е. Н. Каламанова, Н. А. Проданова // Бухучет в здраво-охранении. – 2021. – № 12. – С. 55-68.
4. www.lex.uz
5. www.stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
